



KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI

A.T. Baltayeva

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bilim oluvchilarning fikrlash jarayonini rivojlantirish xususiyatlari ochib berilgan. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish, tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish va boshqa ko'nikmalarni shakllantirish, adabiy qahramonlarni o'rganish usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *xulosalar, pedagogik hamkorlik, munozaralar, nizolar, mustaqil ish, badiiy asar, adabiyot darsi.*

Hozirgi kunda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish muammosi nafaqat pedagoglarni, balki o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, butun boshli davlat va jamiyatni birday qiziqtirmoqda. Bunda o'quvchilarga fundamental bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularning fikrlash doiralari va amaliy faoliyatlarini rivojlantirish ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. An'anaviy hamda zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning nazariy asoslari orasidagi bo'shliqni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlar muloqoti, bilimlarni umulashtirgan holda o'zlashtirish va o'quv dasturlari va o'quv metodik adabiyotlar uchun ularning izchilligini ta'minlovchi prinsiplar va metodlarni izlash, shaxsning axloqiy sifatlarini shakllantirish muammosi yanada dolzarblashmoqda.

Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning bilimli a'zolarigina ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, bilimsizlik bilan samarali kurasha oladi. SHu bilan bir qatorda, ta'limning to'rtta asosiy jihatlari mavjudligi e'tirof etiladi: bilish, faoliyat ko'rsata olish, hamkorlikda hayot kechirish, yashashga o'rganish kabilar.

O'qituvchining vazifasi nafaqat o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va rivojlantirish, balki namoyish qilish va ularga ta'sir ko'rsatishdan ham iborat. Nafosat va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan badiiy ijod orqali o'quvchilarda olamni aniq idrok etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Uning o'ziga xos jihati shundaki, u o'quvchi ko'z o'ngida olamning manzarasini ko'rgazmali, yorqin gavdalantiradi. Unda nafosat elementlari, axloq me'yorlari, ma'naviy his-tuyg'ular o'z ifodasini topadi. Chunki bunday tuyg'ular va axloqiy me'yorlarni har bir o'quvchi o'zlashtirishi va o'ziga singdirishi zarur.

Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi adabiyot o'qitish metodikasi kursining vazifalaridan biri – O'zbekiston jamiyatidagi umummadaniy o'ziga xosliklarni mujassamlashtirishi kerak. Bugungi kunga kelib, jamiyatning har bir a'zosida ma'naviy qadriyatlarga nisbatan qiziqish ortib bormoqda. Shuning uchun ham mavjud adabiy stereotiplar, badiiy va pedagogik ijodga xos dalillar bir-birini inkor qilmoqda. O'qituvchi ta'lim oluvchilar orasidagi yangicha yo'nalishdagi o'zaro munosabatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchi ta'lim oluvchilarni ijodiy izlanish va mustaqil hukmlar chiqarishga undashi lozim. Ta'lim



oluvchilar adabiyot darslarida o'quvchilar turli xarakterdagi shaxslar bilan ro'baro' bo'ladilar va muloqotga kirishadilar.

Mustaqillik yillarida birinchi navbatda badiiy adabiyot o'zgardi. Unda yangicha tafakkur yuritish va o'ziga xos qadriyatlarga amal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan obrazlar vujudga keldi. Bunday vaziyatda ilmning har qanday sohasi shu jumladan adabiyot o'qitish metodikasi ham yangi mavqeni egallamoqda. Adabiyot o'qitish metodikasi mazkur fanni keng ko'lamdagi madaniy yo'nalishda o'quvchilarga taqdim etishni nazarda tutishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi tanqidiy fikrlash layoqatiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishi zarur. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar nafaqat adabiyot fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtiradilar, balki o'quvchilarni asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish mexanizmlarini ham o'zlashtiradilar.

Bugungi kunda nafaqat adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish zaruriyati vujudga kelmoqda, balki o'quvchilarni asar qahramonlarini o'rganishga yo'naltirilgan vaziyatlarni tizimlashtirishga e'tibor qaratish talab etilmoqda. Buning uchun asar qahramonlarining estetik, g'oyaviy, axloqiy, axloqiy-estetik mavqelarini tahlil qilishga oid zarur bilimlar bilan o'quvchilar qurollangan bo'lishlari kerak. O'quvchilar badiiy asarni tahlil qilganlarida qahramonlarga g'oyaviy-estetik, ya'ni hissiy-g'oyaviy jihatdan yondasha olishlari talab etiladi. Adabiyot darslarida o'quvchilar badiiy asarlarni tahlil qilar ekanlar, unga turli asoslardan kelib chiqqan holda yondashadilar. Jumladan, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, lingvistik-uslubiy nuqtai nazaridan, mazkur yo'nalishlarni ongli tarzda uyg'unlashtirish talab etilmoqda. O'quvchilar oldiga bunday talabni qo'yish uchun esa o'qituvchining o'zi ularni o'zaro uyg'un tarzda amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Ko'pchilikni tashvishga solayotgan holatlardan biri – o'quvchi-yoshlarning badiiy adabiyotdan uzoqlashishlari, uni chuqur anglashga intilmayotganliklaridir. Bunday holatni bartaraf etish uchun o'quvchilarda mustaqil kitobxonlik va badiiy adabiyotni anglash idrokni shakllantirish lozim. Buning uchun har bir o'quvchi badiiy asarni chuqur tahlil qilishga odatlantiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarni badiiy asarni yaxlit tarzda o'rganish, yozuvchi qo'llagan so'zlar va ma'nolari ustida ishlashga yo'naltirilgan vaziyatlarni tashkillashtirish talab etiladi. O'quvchilar badiiy asarni har tomonlama chuqur va aniq tahlil etishlari uchun unda ifodalangan voqelik, aks etgan zamon va makon birligi, badiiy asarning bahosi, poetikasini idrok etishlari zarur.

Mustaqillik davrida o'zbek adabiyotiga ko'plab yangi asarlar kirib keldi. Shu asosda adabiyot o'qitish metodikasida ham bir qator yangi muammolar ham namoyon bo'la boshladi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Badiiy asarni so'z san'ati namunasi sifatida o'qish va idrok etish, o'quvchi va uning ma'naviy olamini shakllantirish muammosi. Bu o'rinda o'ziga xos ixtiyorsizlikning xavfliligini tushunib etish talab qilinadi. Jumladan, idrokning to'laqonli emasligi, o'quvchilarning o'ziga xos ahamiyatli xatti-harakatlari, ularni o'qish uchun asarlarni tanlashlari, o'qigan badiiy asarlarini baholashlari, tanlagan hayotiy maqsadlarida namoyon





bo'ladi. Bu ko'nikmalar ko'plab sabablar bilan bog'liq holda vujudga keladi. bunda kitobxonlik idrokining mustaqilligi muhim o'rin egallaydi.

2. Adabiyot o'qitish metodikasi va adabiyotshunoslikni o'zaro aloqadorlik asosida ilmiy manbalar bilan boyitish muammosi. Adabiyot darslarida badiiy asarlarni o'rganish muammosi va istiqbollari bugungi kunda yangicha ijodiy fikrlash kontekstida talqin etilmoqda.

3. Badiiy asarni idrok etish bilan ularni tahlil qilish, qahramonlarga tanqidiy baho berish bilan bog'liq bo'lgan o'quvchilarning mustaqil faaoliyatlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash muammosi.

4. O'quvchilarning badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko'nikmalarining rivojlanishini o'rganish muammosi. Bunda tadqiqotchilik yo'nalishiga ustivor o'rin ajratish talab etiladi. Buning uchun o'qituvchilar maktab adabiyot kursining asoslarini yaxshi bilishlari, adabiyot o'qitish konsepsiyasi, o'quv dasturlari, innovatsion texnologiyalarni tanlay olishlari va turli sinflarda amalga oshiriladigan adabiyot ta'limi jarayonida ulardan foydalanishlari nazarda tutiladi.

5. Adabiyot darslarida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida yangicha xarakterdagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish, bunda o'quvchilarda badiiy ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish muammolari.

6. Darsning yangi tarkibini joriy qilish ustida ishlanishlar olib borish va mashg'ulotlarni tashkil etishning yangi shakllarini modellashtirish muammolari kabilar. Bunda o'qituvchilar estetika, falsafa, tarix va adabiyotshunoslikka oid yondashuvlar va nuqtai nazarlarga murojaat qilishlari kerak.

Moddiy borliqni badiiy tarzda idrok etish va o'zlashtirish O'zbekiston jamiyati madaniy hayotini anglash va o'zlashtirish vositasidir. Borliqni badiiy o'zlashtirish bir qator faoliyat turlarini o'zida mujassamlashtiradi. Jumladan, tubdan o'zgartirish, bilish, qadriyatlarga yo'naltirish va kommunikativlik kabilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi bilan kitobxon o'rtasida o'tib bo'lmaz chegaralar mavjud emas. Chunki san'at, shu jumladan badiiy adabiyot badiiy ijod mahsuli bo'lib, badiiy bilish singari muloqot shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy asar bilan muloqot qilish jarayonida o'quvchilar shaxs va sub'ekt sifatida mazkur jarayonga ishtirok etadi va ob'ektiv borliqqa nisbatan munosabatlar tizimini o'zlashtiradi. Shuning uchun ham, badiiy adabiyot shaxsning mustaqil ongini shakllantirish orqali jamiyatni insonparvarlashtirishning muhim vositasidir. U o'zida o'zbek xalqining badiiy-estetik xotirasi, axloqiy me'yorlarini mujassamlashtirganligi uchun ham o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va ularda tanqidiy tafakkurni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Активные формы преподавания литературы. Лекции и семинары на уроках в старших классах / Сост. Р.И. Албеткова - М.: Наука, 1991. - 135 с.
2. Matchonov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish // Ped. fan. doktori...diss -Toshkent:, 1998.
3. Mirqosimova M.M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya.- Toshkent: Fan, 2006.